



MOLIYAVIY HISOBOTLARNI XALKARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH MASALALARINING MOHIYATI

Jovbo'riyev Jaxongir To'lqin o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya

Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) muvofiqlashtirish masalalari yoritilgan. Transformatsiya jarayoni bank tizimida shaffoflikni oshirish, xalqaro moliyaviy bozorlarga integratsiyalashish va investorlar ishonchini mustahkamlashda muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Tezisda transformatsiyaning bosqichlari, mavjud huquqiy asoslar, duch kelinayotgan muammolar hamda xalqaro tajribalar asosida takliflar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS), transformatsiya, buxgalteriya hisobi, moliyaviy shaffoflik, bank tizimi, xalqaro integratsiya, auditorlik, malakali kadrlar.

Kirish

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mosligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston banklari uchun MHXS bo'yicha hisobot tayyorlash zaruriyati, xorijiy investorlar va hamkorlar bilan munosabatlarni rivojlantirish, kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'liq. Bank tizimining barqaror rivojlanishi va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvi ko'p jihatdan moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mosligiga bog'liq bo'lib bormoqda.

Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish masalasi, amaliyotda chuqur o'rganishni talab qiladigan kompleks jarayondir. Bu faqat buxgalteriya tizimidagi o'zgarish emas, balki banklarning boshqaruv madaniyati, texnologik infratuzilmasi, xodimlar salohiyati va huquqiy muhitini ham o'z ichiga oladigan ko'p qatlamli islohotdir.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfséries.com

20th September 2025

Yirik tijorat banklari bosqichma-bosqich xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tishni boshladi. Ushbu jarayon moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, xorijiy investorlar bilan ishlashda ishonchli asos yaratish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, transformatsiya jarayoni qator tizimli muammolar, xususan malakali mutaxassislar yetishmovchiligi, mavjud buxgalteriya tizimlarining mos emasligi, normative huquqiy tafovutlar va texnik infratuzilmaning zaifligi bilan to'qnash kelmoqda. Bu esa, mazkur jarayonni chuqur ilmiy tahlil qilish va xalqaro tajriba asosida amaliy takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbligi

O'zbekistonda bank tuzilmalarini jahondagi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar bank tizimlari qatoriga kirishini ta'minlash va bu sohada jahon amaliyoti yutuqlarini bevosita bank tizimi faoliyatiga qo'llash, jahon bank tizimidagi banklarning moliyaviy hisobotlarini tuzishning kontseptual va o'ziga xos asoslarini ishlab chiqarish va bank amaliyotiga qo'llash bevosita banklarning rivojlanishi va mustahkamlanishiga turtki bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, so'ngi yillardaxorij sarmoyalarining sezilarli ravishda ortib borishi bank tizimiga bo'lgan ishonchning yana oshishidan dalolat bermoqda. Bu esa o'z navbatida tijorat banklarining turli potentsial foydalanuvchilarga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning sifat tavsifini va axborotlarning oshkoralik darajalarini yanada kuchaytirish lozimligini bildiradi va bunda jahon amaliyotida ishlab chiqarilgan moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) ni qo'llash katta ahamiyat kasb etadi.

Transformatsiya jarayoni murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uning samarali tashkiletilishi bank faoliyatining shaffofligi va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro kredit reytinglarini yaxshilash uchun moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga to'liqlik talab etiladi. Bu esa o'z navbatida transformatsiya jarayonining dolzarbligini yanada oshiradi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) bo'yicha asosiy hujjatlar Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Kengashi (IASB) tomonidan ishlab chiqilgan. IFRS'ning



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econferences.com

20th September 2025

asosiy konseptual ramkasi (Conceptual Framework for Financial Reporting) moliyaviy hisobotning maqsadi, foydalanuvchilari va sifat talablarini belgilab beradi. Masalan, IFRS 9 (Financial Instruments), IFRS 7 (Financial Instruments: Disclosures) va IAS 1 (Presentation of Financial Statements) kabi standartlar ayniqsa banklar uchun dolzarb hisoblanadi. Deloitte, KPMG, EY va PwC kabi yirik konsalting kompaniyalari tomonidan e'lon qilinadigan IFRS Implementation Guide va yillik "IFRS Update" hisobotlari mazkur mavzuning amaliy tomonlarini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

“Balans asosida transformatsiya qilish” –BHMS bo'yicha moliyaviy hisobot shakllaridagi ma'lumotlarMHXS bo'yicha hisobotning tegishli shakllariga o'tkaziladi, bevosita MHXS bo'yicha hisobot satrlari darajasida tuzatishlar kiritiladi. Jarayonning avtomatlashtirilishi qo'llanilayotgan buxgalteriya dasturiga bog'liq emas. MHXS bo'yicha Schyotlar rejasini ishlab chiqish talab etilmaydi, tuzatishlar kiritish tizimining shaffofligi, MHXS bo'yicha hisobot darhol shakllantiriladi. «Balans asosida» yondashuvi katta bo'lmagan korxonalarining hisobotini transformatsiya qilish yoki «bir martalik» transformatsiya qilish chog'ida qo'llaniladi. Transformatsiya modeli-elektron jadvallar majmui, ularga BHMS bo'yicha buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari, tuzatishlar va natijada olinadigan xalqaro hisobot ma'lumotlari kiritiladi. Transformatsiya jadvallari Excel dasturida yoki kompaniya uchun mos boshqa dasturda yaratiladi. Ular MHXS bo'yicha hisobotni shakllantirish maqsadida qilingan barcha o'tkazmalarni kuzatish imkonini beradi. Jadvallarning aniq tarkibi kompaniyaning faoliyat turiga, unda yuritiladigan buxgalteriya hisobi, shuningdek bevosita hisobot transformatsiyasini tashkil etish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Xulosa va Taklif

Xulosa qilib aytganda, transformatsiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Bu jarayonda xalqaro tajribani o'rganish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va professional kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Transformatsiya jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillar ichidabankxodimlarining MHXS bo'yicha malakasi va bilim darajasi alohida o'rin



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th September 2025

tutadi . Bankxodimlarining professional tayyorgarligi transformatsiya jarayonining sifatini vatezliginibevosita belgilaydi. Shu bois, xodimlarning muntazam ravishda malaka oshirishi, xalqarosertifikatlarga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Axborot tizimlarining moshligi transformatsiya jarayonining texnik jihatdan ta'minlanishidahalqiluvchi rol o'ynaydi. Zamonaviy bank axborot tizimlari MHXS talablariga moskelishi,ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Buorqalittransformatsiya jarayonidagi xatoliklar minimallashtiriladi va vaqt sarfi kamaytiriladi.

Bank xodimlarining malakasini muntazam oshirib borish alohida e'tibor talab etadiganmasalahisoblanadi. MHXS bo'yicha xalqaro sertifikatlar olish, maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish, xorijiy mutaxassislar bilan tajriba almashish kabi tadbirlar muntazamravishdao'tkazibborilishi lozim.

Umuman olganda, O'zbekiston tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni xalqarostandartlargatransformatsiya qilish jarayoni bank tizimini modernizatsiya qilishning muhimyo'nalishihisoblanadi. Bu jarayonning muvaffaqiyati ko'p jihatdan yuqorida keltirilgan tavsiyalarningamalga oshirilishiga bog'liq bo'lib, ularning izchil ravishda hayotga tatbiqetilishi banktizimining xalqaro moliya bozoriga integratsiyalashuvini tadbirlar muntazamravishdao'tkazibborilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. IFRS Foundation (2023). International Financial Reporting Standards (IFRS) Bound Volume 2023. London: IFRS Foundation.
2. Deloitte (2022). IFRS in Focus: First-time adoption of IFRS by financial institutions. Deloitte Global Services Limited.
3. KPMG Uzbekistan (2022). IFRS implementation challenges in Uzbekistan's banking sector. Tashkent: KPMG Insights.
4. EY (Ernst & Young) (2023). Financial Reporting under IFRS for Banks and Financial Institutions. London: EY Global.
5. PwC (PricewaterhouseCoopers) (2021). Practical Guide to IFRS for Banks. PwC Publications.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023). Bank tizimining yillik rivojlanish hisobotlari. Toshkent: Markaziy bank matbuot xizmati.



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfséries.com

20th September 2025

-
7. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (2022). Moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar. Toshkent.
 8. Karimova, N. (2021). "O‘zbekiston bank tizimida xalqaro standartlarga o‘tishning nazariy va amaliy asoslari". Iqtisodiyot va moliya, 4(78), 45–52.
 9. Rasulov, A. (2022). "Bank hisobotlarining xalqaro standartlarga transformatsiyasi va soliq hisobidagi muammolar". Buxgalteriya va audit, 5(63), 21–27.